



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025


- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 161 sahifa,
1-oktyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA SUITSIDAL XULQ-ATVORNI KAMAYTIRISHDA PSIXOKORREKSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI VA IJTIMOY AHAMIYATI.....	8
Tursunova Ozoda Abdullayevna	
O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: FUQAROLIK JAMIYATI.....	14
Abdikadirov Umidjon Ruzbayevich	
TALABALARDA KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	18
Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li	
TALABALARDA LIDERLIK XUSUSIYATINING NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI.....	22
Sobitova Shaxnoza Shokir qizi	
O'SMIRLARDA TURLI XIL YOT G'OYALARGA BERILISHNING AYRIM IJTIMOY-PSIXOLOGIK MASALALARI	27
Tulyaganova G.O.	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDAGI O'QUVCHILARNING O'QUV MOTIVATSIYASI VA STRESS DARAJASI MUNOSABATI.....	31
Xodjayeva Dilnovoz Djumoyevna	
OILA-TURMUSH DOIRASIDAGI VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA JINOYATLARNING KELIB CHIQISHIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SHAXSNING HULQ-ATVORIDAGI XUSUSIYATLARI	36
Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna	
PSIXOGISTALOGIYANING YANGI YO'NALISH SIFATIDA YUZAGA KELISHI ZARURATI VA ILMIY ASOSLARI	41
Azimov.J.S., Melibayeva R.N.	
KONSTRUKTIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA LIDERLIK QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	44
Kurbonova Mushtariybegim Baxtiyorjon qizi	
BO'LAJAK KASB TA'LIMI O'QITUVCHILARIDA KASBIY IDENTIFIKATSIYANI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	47
Kurbonov Munis Umirbekovich	
BOLALARDA KOGNITIV JARAYONNING RIVOJLANISHI.....	52
Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi	
SUN'IY INTELLEKT VOSITALARINING TURLARI VA YOSHLARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIK XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI	56
Ismailov Avazbek Axadjon o'g'li	
PROFIL ORTIDAGI "MEN" RAQAMLI SHAXSIYAT VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI.....	60
Azizova Shodiya Utkur qizi, Tulyaganova Gulnoza Olimjon qizi	
OILA HAYOTIDA AYOLNING IJTIMOY ROL IDENTIFIKATSIYASI: PSIXOLOGIK TAHLIL.....	63
Xujayeva Zarnigor Muzaffar qizi	
YOSH MUTAXASSISLARINING KASBIY MOSLASHUV MEXANIZMLARI	68
Shodiyeva Rayhon Saydullayevna	
SALBIY EMOTSIONAL KECHINMALARNING SHAXSLARARO MUNOSABATLARGA TA'SIRI	75
Mirabdullayeva Sh. A.	
GLOBALASHUVNING SHAXS SHAKLLANISHIGA TA'SIRINING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	79
Raxmatova Zamira Baxtiyorovna	



ВЛИЯНИЕ СТИЛЕЙ ПРИВЯЗАННОСТИ РОДИТЕЛЕЙ НА ВОСПИТАТЕЛЬНЫЕ ПРАКТИКИ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ С ДЕТЬМИ.....	83
Шомуродова Махфуза Аслитдиновна	
BO'LAJAK MUTAXASSISLARNING KASBIY DINAMIK RIVOJLANISHIDA SHAXS IJTIMOYILASHUVI VA ADAPTIV INTELLEKT MUAMMOSI.....	88
Tuychiyeva Saodat Melikuziyevna	
LOGOTERAPIYA USULIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.....	93
Narziqulova Gulrux Axrorovna	
O'ZINI O'ZI TUSHUNISH TUSHUNCHASINING PSIXOLOGIK TALQINI	98
Mahmudov Abdurasul	
ICHKI LOKUS NAZORATNI RIVOJLANTIRISH ORQALI O'QUVCHILARDA MUVAFFAQIYAT MOTIVATSIYASINI KUCHAYTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	102
Karimov Sherzod Abdurasulovich	
SPORT FAOLIYATIDA YUZAGA KELADIGAN STRESS OMILLARI PSIXODIAGNOSTIKASI VA PSIXOKORREKSIYASI	106
Nazarov Davron Baxtiyor o'g'li	
YOSH KELINLAR PSIXOEMOTSIONAL HOLATIDA STRESS VA MOSLASHUV JARAYONLARI	111
G'afforova Dilfuza Jo'rayevna	
RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	114
Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna	
O'SMIR RUHIY FAROVONLIGIGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR.....	118
Mustafayeva Muxlisa	
KEKSA ODAMNING PSIXOLOGIK HOLATI KOMPLEKS REABILITATSIYA KOMPONENTI SIFATIDA.....	122
Rustamova Manzura Ne'matjanovna	
KOMMUNIKATIV KOMPITENTLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI	126
Tajibayev Shohruh Maqsudovich	
ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВУЗА КАК СИСТЕМА САМООРГАНИЗАЦИИ И РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА.....	131
Рахманова Диляра Рустемовна	
ЭТНОПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАЗАХОВ И УЗБЕКОВ	136
Айдарова Диана Смутуллаевна	
ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ КОМПЛЕКСА НЕПОЛНОЦЕННОСТИ У ПОДРОСТКОВ	138
Халмуратова Дилором	
TA'LIM SOHASIDA OROLBO'YI IQLIMIGA SHAXSNING MOSLASHUV STRATEGIYALARINI O'RGANILISHI.....	142
Jumamuratova Guljayna Kenesbayevna	
INSON RESURLARINI RIVOJLANTIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING BOSH OMILI SIFATIDA.....	145
Axmedov Alisher Gayrat o'g'li	
TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	150
A.K.Shamshetova	
AFFILIATSIYA MOTIVINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDI O'RGANILISHI	153
Samatova Sevara G'ayratovna	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	157
Yadgarova Ozoda Ibragimovna	

TARBIYACHI PEDAGOGNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

A.K.Shamshetova

O'zDJTU

Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglarning psixologik bilimlari hamda bolalar bilan o'zaro munosabatlarda qo'llaniladigan psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarbiyachining shaxsiy psixologik tayyorgarligi, bola shaxsining rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishdagi o'rni va psixologik ko'mak tizimining ahamiyati yoritilgan. Maqolada shuningdek, tarbiyachi va bola o'rtasidagi emotsional muloqot, individual yondashuv va empatiya tamoyillarining bola tarbiyasidagi o'rni ham ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiyachi-pedagog, bola shaxsi, psixologik bilimlar, rivojlanish trayektoriyasi, psixologik ko'mak, emotsional muloqot, bola tarbiyasi.

Abstract: This scientific article analyzes the psychological knowledge of preschool educators and the application of psychological approaches in their interactions with children. The study explores the psychological preparedness of teachers, their role in shaping the child's developmental trajectory, and the importance of psychological support systems in early education. Special attention is given to emotional communication, individual approaches, and the role of empathy in fostering the child's personality development and effective upbringing.

Key words: preschool educator, child's personality, psychological knowledge, developmental trajectory, psychological support, emotional communication, child upbringing.

Аннотация: В данной научной статье рассматриваются психологические знания педагогов дошкольных образовательных учреждений и особенности применения психологических подходов во взаимодействии с детьми. Анализируется психологическая готовность воспитателя, его роль в формировании траектории личностного развития ребенка, а также значение системы психологического сопровождения в образовательном процессе. Особое внимание уделено роли эмоционального общения, индивидуального подхода и эмпатии в воспитании ребенка.

Ключевые слова: педагог-воспитатель, личность ребенка, психологические знания, траектория развития, психологическое сопровождение, эмоциональное общение, воспитание ребенка.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta'limda amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarida zamonaviy pedagog-tarbiyachi kadrlarni tayyorlash muammosi dolzarb hisoblanadi. Jamiyatning bo'lajak a'zosi shakllanishi bog'cha va tarbiyachidan boshlanadi. Shu boisdan bog'cha tarbiyachisi bo'lish nafaqat muhim, balki sharaflil va mas'uliyatli kasbidir.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy tarbiyachi-pedagog shaxsida psixologik kompetensiya, keng psixologik bilimlar, o'dob-axloq, bolalarga muhabbat, pedagogik mahorat hamda ijodiy salohiyat mavjud bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasida shunday deyiladi: "Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'i nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi."

Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, barkamol avlodni tarbiyalash jarayonini tarbiyachilar tomonidan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlashda ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish va malakasini oshirish jarayonini samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini tubdan isloh qilish ishlari pedagog-tarbiyachilarga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Hozirgi davr talablariga mos pedagog-tarbiyachi axloqiy-ma'naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy



faol, ijodiy faoliyatga moyil, yangicha kasbiy dunyoqarashga ega, shuningdek, o'zgarayotgan zamon talablariga moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Tarbiya berish jarayonida bolalarda nafaqat qoida va xulq-atvor me'yorlari, balki barcha ijobiy fazilatlar, nutq va tafakkur ham shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachida pedagogik mahorat va psixologik bilimlar shakllangan bo'lishi lozim.

Pedagogik mahorat inson tarbiyasini amalga oshiruvchi o'quv-tarbiya ishlarining samarali olib borilishiga yordam bersa, bolalar psixologiyasini chuqur tushunish esa ularning yoshiga mos munosabatlarni va o'yin mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishga imkon beradi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlanayotgan bolalar psixologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlarni L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, V.P. Zinchenko, I.A. Zimnyaya, K. Rodjers, A. Maslou, G.M. Andreeva, A.I. Donsov, A.L. Juravlev, Ya.J. Kolominskiy, R.S. Nemov, J.I. Umanskiy, A.S. Chernishevlar o'z ilmiy xulosalarida yoritib berganlar. Shuningdek, zamonaviy maktabgacha ta'lim muammolari bo'yicha A.G. Asmolov, J.I.A. Venger, V.V. Davydov, A.V. Zaporozhes, V.T. Kudryavsev, V.S. Muxina, D.B. Elkoninlar o'z ilmiy-psixologik qarashlarini bildirganlar.

Ellen Sandler Brochus maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik qobiliyatlariga ta'sir ko'rsatuvchi matematik o'yinlarni tajribadan o'tkazgan. A. Kuznesov va uning hamkasblari axborot texnologiyalaridan foydalanishning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rganishgan.

Maktabgacha ta'lim kelajakda bola shaxsining shakllanishi va uni muvaffaqiyatga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda bog'cha tarbiyachi-pedagogdan yuqori darajadagi kasbiy mahorat va psixologik kompetensiyaga ega bo'lish talab etiladi.

Ma'lumki, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud. Asosiy muammolardan biri — malakali pedagog-tarbiyachilarning yetishmasligi bo'lsa, yana biri — maktabgacha ta'lim muassasalarining yagona psixologik-uslubiy bazasi va standartlarining yo'qligidir. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilarga psixologik ko'mak beruvchi o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish, innovatsiyalar bilan boyitilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bog'cha tarbiyachi-pedagogda bolani tarbiyalashda individual ta'lim trayektoriyasini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bola shaxsining uzluksiz tarbiya jarayonlari bilan bog'liq milliy qadriyatlarimizni o'z ichiga olgan psixologik xizmat dasturlari bilan tanishib borishni yo'lga qo'yish zarurati tug'ilmoqda. Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog-tarbiyachilar bolalar salomatligi va ularning farovonligi haqida g'amxo'rlik qilishlari, bolalarni o'rganishga oid psixologik xaritalar hamda hujjatlarni saqlash va kelgusidagi ishlarni rejalashtirish kabi vazifalar bilan shug'ullanadilar. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi-pedagogning ishi doimiy ravishda o'z ustida ishlashni, ijodiy fikrlashni va izlanishni talab qiladigan faoliyatdir.

Bugungi kunda tarbiyachi-pedagoglarga tarbiyalanuvchilarning ota-onalari hamda umuman jamoatchilik tomonidan qo'yiladigan talablar yuqori. Ulardan yaxshi ta'lim-tarbiya berish, yuksak shaxsiy va kasbiy fazilatlariga ega bo'lish, malakali nutq, munosib tashqi ko'rinish va qiyofa, shuningdek, zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachi-pedagogning grammatik jihatdan to'g'ri nutqqa ega bo'lishi zarur, chunki bola so'z boyligi endigina shakllanayotgan, ammo juda tez o'sib borayotgan yoshdadir. Shu sababli atrofdagi til muhiti toza, to'g'ri va jarangsiz bo'lishi lozim. Tarbiyachi-pedagogning nutqi bolaga sodda va tushunarli, ayni paytda aniq va mantiqiy bo'lishi kerak. Bolaning nutqini shakllantirish va so'z boyligini boyitish jarayoni tarbiyachi-pedagog tomonidan e'tiborsiz qoldirilmasligi lozim.

Bolalar bog'chasida bolaning tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy shaxs — bu tarbiyachi-pedagogdir. U o'z kasbini chin dildan sevuvchi, bolalarga mehrli, bola psixik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi mashg'ulotlarni me'yorida tashkil etuvchi mutaxassis bo'lishi kerak. Shunga qaramay, bolalar bog'chasi tarbiyachi-pedagogining roli ko'pincha yetarlicha baholanmaydi, chunki bolaning shaxsiga ta'sir ko'rsatish har doim ham oson emas. Maktabgacha yosh davrida bolaning shaxs sifatida rivojlanishi aynan bog'cha davridan boshlanadi.

Bolaning yashash sharoitining o'zgarishi, ta'lim-tarbiya mazmuni va usullarining yangilanishi ham uning rivojlanishiga bevosita ta'sir etadi. Bog'cha davrida bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun uni hamma narsa qiziqtiradi, u ko'p savollar bera boshlaydi. Bog'chada bolaning barcha ko'nikmalari, kognitiv rivojlanishi va ijtimoiy xulq-atvorining dastlabki kurtaklari shakllanadi. Shu sababli tarbiyachi-pedagoglardan bola psixologiyasiga oid chuqur bilimlarga ega bo'lish talab qilinadi.

Tarbiyachi-pedagoglarning o'z tajribalariga tayanib, bolalar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatib borishlari, ijobiy emotsional muhit yaratishlari, bola mehnatini ijobiy baholashlari, amaliy yordam ko'rsatishlari va hamdardlik bildirishlari bolaning ijtimoiylashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar bog'chasi ko'plab ota-onalar uchun sevimli joy hisoblanadi. Ota-onalar har kuni ertalab farzandlarini ushbu qulay muassasaga olib kelib, xotirjamlik va ishonch bilan topshiradilar. Demak, tarbiyachi-pedagogdan katta mas'uliyat talab etilishi tabiiydir.

Har qanday tarbiyachi-pedagogning faoliyati psixologiya bilan uzviy bog'liq, chunki ular bolalar bilan ishlaydilar. Yosh bolalar bilan ishlashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan o'ziga xos xususiyatlar mavjud, ya'ni ular hissiyotlarini tushunish, ovqatlanish, hushyorlikni saqlash, xatti-harakat va ko'nikmalarni shakllantirish, har tomonlama rivojlanishni ta'minlash kabi jihatlar erta bolalik davrida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilk bolalik davrida bolaning atrof-muhitga qiziqishi ixtiyoriy bo'lmaydi. Bola yangi narsalarni bilishga qiziqqan paytda bir-biriga mos kelmaydigan savollar beradi. Shuning uchun bolalarning savollariga to'g'ri, aniq javob berish muhimdir. Yoshi kattalarning bola istaklarini tushunmasligi, uning ixtiyorsiz xatti-harakatiga to'liq qarshilik ko'rsatishi yoki bola kutgan javobni bera olmasligi natijasida bola psixologik jihatdan qoniqmaslikni his qiladi.

Tarbiyachi-pedagogning asosiy vazifasi — maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishga yordam berishdir. Bu, ko'p jihatdan, bolaning yangi jamiyatga qanchalik moslasha olishi, tengdoshlari bilan aloqa o'rnatishi va muhim ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Bolalar bog'chalarida tarbiyachi nafaqat ijtimoiylashuvga yordam beradi, balki ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarga asosiy ko'nikmalarni — mustaqil muloqot, kiyinish, ovqatlanish va gigiyena malakalarini o'rgatadi.

Darhaqiqat, tarbiyachi-pedagog psixologiyasi uning pedagogik faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi, shakllanadi va o'zgaradi. Pedagogik faoliyatning asosiy maqsadi — yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati o'ziga xos tashkil etish shakllari, mazmuni va amalga oshirish usullariga ega. Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagogik faoliyati mazmuni va psixologiyasi, birinchi navbatda, ijtimoiy omillar — bog'cha tarbiyachisining jamiyatdagi o'rni va funksiyalari, jamiyatning o'qituvchiga qo'yadigan talablari, shuningdek, ijtimoiy-psixologik omillar, tarbiyachi atrofidagi insonlarning umidlari va kutishlari bilan belgilanadi.

Bizga ma'lumki, ta'lim tizimini insonparvarlashtirish uning hozirgi rivojlanish bosqichida pedagog kadrlarning umumiy va kasbiy tayyorgarligiga, ularning ijodiy individualligini namoyon etishiga yuqori talablar qo'ymoqda. Faoliyatning individual uslubi kasbiy mehnatni individuallashtirish jarayonining muhim xususiyatlaridan biridir. Maktabgacha ta'lim faoliyati murakkab va ko'p komponentli bo'lib, uning tarkibiy qismlari xilma-xildir. Shu sababli bog'cha hayotiga oid uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Bolalar bog'chasi tarbiyachi-pedagogining asosiy vazifasi — psixikaning rivojlanishi uchun me'yoriy shart-sharoitlarni ta'minlash, bolaning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni bartaraf etish, aqliy rivojlanish jarayonida og'ishlarni erta aniqlash, bolaning keyingi rivojlanishini bashorat qilish, aqliy rivojlanishdagi mumkin bo'lgan muammolarning zarur profilaktikasini amalga oshirish hamda zarurat tug'ilganda mutaxassis — psixolog yordamiga murojaat qilishdir.

Bundan tashqari, bola psixikasi haqidagi bilimlar yaxlitlik, umumiylik va tizimlilik bilan belgilanmog'i lozim. Bu esa bola psixikasi rivojlanishining individual yo'nalishlari, uning faoliyat shakllari, aqliy xususiyatlari va jarayonlari, qobiliyatlari hamda motivlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni chuqur anglashni talab etadi. Bolalar bog'chasi tarbiyachisi tomonidan bolalarni o'rganish, ularning xatti-harakat sabablarini tushunish, moyilliklarini aniqlash va ularning rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga amaliy e'tibor qaratilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglardan yuqori darajadagi mas'uliyat va psixologik yondashuvni talab qiladi. Tarbiyachi-pedagoglarning psixologik bilimlarini muntazam ravishda boyitish, ularni psixologik o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash ishlarini takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида. Т.: 2019 йил 16 декабрь, ЎРҚ-595-сон. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон).
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.-Т.: Ўзбекистон, 2017-488 б.
3. Абдакимова М.К. Ўзбекистон Республикасида мактабгача таълим тизими тараққиётининг ташкилий —педагогик асослари (1991-2000 йй). Дисс. пед.фан.ном.-Т.: 2004.-176 б.
4. Быкова Н.А. Проблемы развития дошкольного образования в современном мире. Инновации в науке. – 2016. – № 6 (7). С. 25-28
5. Дуброва В.П. Теоретико-методические аспекты взаимодействия детского сада и семьи: Учебное пособие. – Минск, 1997. – 74 с.



13.00.00	Pedagogika fanlari
13.00.01	Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03	Maxsus pedagogika
13.00.04	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05	Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06	Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07	Ta'limda menejment
13.00.08	Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09	Ijtimoiy pedagogika
07.00.00	Tarix fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari
01.00.00	Fizika-matematika fanlari
02.00.00	Kimyo fanlari
03.00.00	Biologiya fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
11.00.00	Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.